
“SO‘NGGI QO‘NG‘IROQ” TADBIRLARI KO‘TARINKI KAYFIYATDA O‘TKAZILDI

Tumandagi ixtisoslashtirilgan maktabidagi “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev ishtirok etib, maktab kutubxonasiga kitoblar to‘plamini sovg‘a qildi. Mustaqil hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlarga kelgusi o‘qish va ishlarida omad tiladi.

Bayram tadbirida ustoz-murabbiylar 11-sinfni bitirayotgan o‘quvchilarga o‘zlarining samimiy tilaklarini bildirib, katta hayotga qadam qo‘yishdek sharaf va mas‘uliyat bilan barcha bitiruvchilarni qutlashdi.

Ko‘tarinki ruhda o‘tgan tadbirda kuy-qo‘shiqlardan iborat bayram dasturi namoyish qilindi. O‘quv yilida yuqori natijalarga erishgan o‘quvchilar hamda ustoz-murabbiylar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

2024-05-25 10:08:03